

## ОЗИQ-ОВQАТ ХАВФСИЗЛИГИДА МОДЕЛЛАСHTИРИШНИНГ АНАМИЯТИ

*Normurotova O'g'iloy Baxtiyor qizi*  
*Termiz davlat Universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inson salomatligida oziq-ovqat xavfsizligining o'rni, ahamiyati haqida tushunchalar keltirilgan. Aholi uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash jarayonlarini modellashtirishning afzalliklari to'g'risida fikr bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Oziq-ovqat mahsulotlari, oziq-ovqat xavfsizligi, inson salomatligi, AKT imkoniyatlari, amaliy dasturlar, modellashtirish.

Oziq-ovqat mahsulotlari dunyodagi eng ko'p sotiladigan tovarlar qatoriga kiradi. Bozorlar yildan-yilga tobora globallashtirib borayotgani va dunyo aholisi o'sishda davom etar ekan, global oziq-ovqat yetkazib berish murakkabligi ham oshishda davom etadi. Oziq-ovqat sanoati - inson salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan soha. Har yili millionlab odamlar oziq-ovqat kasalliklaridan azob chekishadi va hatto o'limgacha bo'lgan jiddiy muammolarga duch kelishadi. Bu odamlarga ham, iqtisodiyotga ham zarar keltiradigan, oldini olish mumkin bo'lgan muammo. Oziq-ovqat kasalliklarini kamaytirishdan tashqari, oziq-ovqat xavfsizligini doimiy ravishda yaxshilash iqtisodiy va ijtimoiy foyda keltirishi mumkin.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda resurslar sarfini kamaytirish, samaradorlikni oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bunday muammolarni yechishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, ularni amaliyotga tadbiq qilishda axborot kommunikatsiya texnologiyalari, amaliy dasturlar imkoniyatlaridan keng ko'lamda foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Milliy oziq-ovqat xavfsizligini belgilangan parametrlarda ta'minlash uchun ushbu jarayonni modellashtirishning nazariy, uslubiy va amaliy asoslarini mustahkamlash zarur.

Bu borada AKT dan foydalanish imkoniyatini yaratib berish, amaliy dasturlardan foydalangan holda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash jarayonlarini modellashtirish, jabhada omillardan foydalanishning optimal hajmini asoslash masalalari bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Shunday ekan, oziq-ovqat xavfsizligining masalasi barcha davlatlar qatori O'zbekistonning ham mustaqilligi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorligini ta'minlash garovi hisoblanadi. Yurtimizda bu muammo hamon o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Zero, ayni paytda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab oshyapti, aholi soni o'sishi asnosida jon boshiga istemol ko'paymoqda. Binobarin, mamlakatimizda so'nggi uch yilda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, mahsulotlar sifati va eksport salohiyatini oshirishga bo'lgan yondashuv mutlaqo o'zgardi, davlat

siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirildi. Bunga asosiy sabablardan biri pandemiya. Koronavirus pandemiyasining jahon iqtisodiyotiga salbiy ta'siri turli muammolarni keltirib chiqardi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida sekinlashuv ro'y berganligi prognoz qilindi. Bu holat o'z navbatida jahon miqyosida ishsizlik darajasi, oziq-ovqat yetishmovchiligi va uning xavfsizligiga doir muammolarni yanada chuqurlashtirdi. Shu boisdan ham bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash jarayonlarini samarali rivojlantirish yo'nalishidagi chora-tadbirlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimizning joriy yil 16 yanvardagi "Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni bu boradagi sifatlarni sifat jihatdan yuqori pog'onaga olib chiqmoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda oziq-ovqat xavfsizligi sohasida me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, aholini barcha qatlamlarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishi uchun iqtisodiy imkoniyatlarni oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashni davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish hamda shunga o'xshash asosiy yo'nalishlari belgilandi. Bu sa'y-harakatlarning negizida faqatgina aholi turmush tarzini yaxshilash, ularning sog'lom hayot kechirishi uchun yetarlicha imkoniyatlar yaratish, oziq-ovqat xavfsizligiga e'tibor qaratish yotadi.

Zotan, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Xalqimiz salomatligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, biz uchun hayotiy muhim masaladir. Takror aytaman, tinchlik va sog'likni ta'minlasak, qolgan hamma narsaga erishamiz. Qishloq xo'jaligidagi islohotlardan maqsad – iqtisodiy foyda ko'rish bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, xalq farovonligini oshirishdan iboratdir. Buni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur".

Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash, bozorni sifatli, xavfsiz va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish, aholining xarid imkoniyatlarini mustahkamlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish va sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birgalikda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash jarayonlarini modellashtirish aholiga statistic ma'lumot bo'lishi bilan birgalikda, sog'lom va xavfsiz oziq-ovqat haqidagi xabar bo'lib xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. B.B.Berkinov. Ekonometrika. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2015 y.
2. D.N.Saidova, I.B.Rustamova, Sh.A.Tursunov. Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi. O'quv qo'llanma. –Toshkent: O'z.R Fanlar Akademiyasi asosiy kutubxonasi, 2016y.,
3. Mirtazayev S.M., "Qishloq xo'jaligida ekonometrik modellardan axborot texnologiyalari asosida foydalanish yo'nalishlarini takomillashtirish". i.f.d. darajasini olish uchun yozilgan diss., Urganch -2021 y.

4. Abdug'aniyev O.A. Mintaqaning oziq-ovqat bilan ta'minlanganligini baholash usullari va mezonlari. //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy electron jurnal. Toshkent, 2018 y.
5. Abdug'aniyev O.A. Mintaqadagi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash jarayonlarini modellashtirish. //Moliya ilmiy jurnali. Toshkent, 2018y.